

**JAMOL KAMOLNING BUYUK MUTAFAKKIR VA JAMOAT ARBOBI ALISHER
NAVOIYNING “ASRU” RADIFLI G’AZALIGA YOZGAN MUXAMMASI**

D.I.Nazarova – *assistent o’qituvchi*

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Tayanch so’zlar: vafo, jafo, fano, ruh, haqiqat.

Ключевые слова: преданность, унижение, переход, душа, справедливость.

Key words: faithfulness, abuse, transition, spirit, justice.

Jamol Kamol bir maqolasida “Bolalikdan Bobur ru-boiylarini yod olganman, keyin Navoiy g’azallarini...” deb yozadi [1]. Ha, Jamol Kamolning mutarjim sifatida kamol topishida Jaloliddin Rumiyni ruhi qanday madadkor bo’lgan bo’lsa, shoir sifatida o’z o’rniga ega bo’lishda Alisher Navoiyning betakror ijodi unga poydevor vazifasini o’tagan. Shoir o’zi xotirlaganidek bolalikdan Navoiy g’azalari uning ongu shuurini egallab olgan desak mubolag’a qilmagan bo’lamiz. “Navoiy ijodi-quyosh shulasi tushib turgan tiniq bir ko’zgu” deya tashbeh qiladi [2]. Darhaqiqat shoir tashbeh qilganidek, Navoiy ijodi shaffof bir ko’zgu asrlarga yetgulik ulkan bir qiyosi yo’q ummon. Navoiy tafakkurdan shunday mashala yoqdiki, uning qarshisida besh asrdan keyin ham ko’zlarimiz qamashib ketadi deya juda asosli talqin qildi [2]. Yuqoridagi fikrlardan ko’rinib turganidek, shoirning Navoiy ijodiga e’tiqodi juda yuksak. Jamol Kamol har bir fikrida bajargan amalida Navoiy ijodi quliyoti asos vazifasini o’taydi. Jamol Kamol Alisher Navoiyning “Asru” g’azliga muxammasida Navoiy ijodidan ilhomlanganini ko’rishimiz mumkin. Bilamizki, har biror bir shoir ijodiga bo’lgan yuksak mehru e’tiqodi namunasini uning g’azaliga atab yozgan muxammasida ko’rishimiz mumkin. Muxammas sharq she’riyatida keng tarqalgan janr. Uning shakliga ko’ra muxammas besh she’r bo’lib, unda birinchi uchta band muxammasni yozgan shoirning she’rlari va oxirgi ikkita band muxammas yozishga asos bo’lgan shoirga tegishli bo’lgan asar hisoblanadi. Aslini olganda, muxammas bu yaratuvchilik, taniqli asar asosida yozilgan yangi she’r. Shoimi muallifning fikrlari va obrazlarini yangicha ko’rib chiqishga va ovoz berishga ilhomlantirgan ijod namunasidir. Muxammas janri ko’p asrlardan buyon mavjud bo’lib, sharqdagi har bir shoir o’zining sevimli ustozining she’rlariga muxammas yozishni istaydi. Muxammas shoir iste’dodining yetukligining haqiqiy sinovi, g’azal muallifiga bo’lgan muhabbatining namoyishidir. Jamol Kamol iste’dodi ayni cho’qqisiga chiqqanda mutafakkir Alisher Navoiyning “Asru” g’azaliga muxammas yozishni boshladi va buning natijasi o’laroq Ollohning marhamati bilan yangi asar tug’ildi. Muxammas matnini sharhlashdan oldin keltirilgan ayrim tasavvufiy so’zlarning mazmuni bilan tanishib chiqishni joiz deb bildik.

1. Asru- ko’p yoki tez tez. 4. Oh- ruhning yig’isi.
2. Vafo- sodiqlik. 5. Kavsar boqiylik suvi.
3. Fido-o’zini qurbon qilmoq. 6. N afs –nosog’lom ehtiyojlar
Azaldin toleim rangida oq kamdur, qaro asru,
Qarolikdan kelur boshimga har dam mojaru asru,
Bo’libman bu jihatdin munchakim zoru ado asru,
Vafo ahliga davru davrondin etar jabru jafo asru,
Jafosidin aning ozurdadir ahli vafo asru.
Shoir aymoqchiki, azob-uqubat va baxt va baxtsizlik toshlari ko’p sodoqatli odamlarga otiladi. Bu orqali yaratgan sinovlarda bandasini toblaydi. Bu sinovlardan qay darajada o’ta olishi uning sabru qanoatiga bog’liq. Sabr toqat insonga berilgan bebaho gavhar sabrli insonlar har qanday mashaqqatni yengishga qodir.

Bu g’amning ibtidosi hazrati Insondin emishkim,
Bu savdo ixtirosi lanati shaytondan emishkim,
Bu kulfat, bu alamlar gardishi davrondan emishkim,
Bukim, ahli vafo noyob erurlar, ondindan ermishkim,
Bu eski toq alarg’a yog’durur gardi balo asru.
Muxammasda g’amning boshlanishi hazrati insondandir lekin bunga sababchi bo’lgan asosiy balo bu shaytondir deya talqin qiladi. Keyingi satrlarda esa bu alamlar davrondandir deya bizni yaratgan Olloha ishorat qilyapti

va shuni ham e’tirof ettiryaptiki, osmon azoblarining da’vosi topilgan emas.

Tilab rohat farog’at bu jahondin, kimsa topmaydur,
So’rab mehru muruvvat bu zamondin kimsa topmaydur,
Kel, ey ko’ngil, sabr qil boshqa yondin sabr topmaydur,
Falak dardi iloji chiqmay ondindan kimsa topmaydur,
Magar noyob erur ul haqqa ichra bu davo asru.

Agar sen farog’at istasang mehru muruvvat istasan uni bu dunyodan topolmaysan yaxshisi sabr qil, chunki falakning bergan dardiga hamon davo topilmagan.

Farog’at istagin etma, mashaqqat yo’liga yuz tut,
Ko’ngil darbozasini ochgil jahonga, bo’lmasin mahdud,
Alamdan ne samar bo’lgay, fig’onu noladin ne sud,
Garon jonlig’ini qo’y, jon ber, tilar bo’lsang duri maqsud,
Ki, olamda og’irdur ushbu javharg’a baho asru.

Agar sen farog’at istasang mashaqqatlar yo’lini tut, ko’ngil eshigini och o’zingdagi dunyodan o’zingni yopma, dunyoga qarshi g’azabdan unga qarshi ohu fig’on qilishdan hech qanday foyda vafo yo’lini tutsang hech qachon adashmaysan qabilida yozyapti.

Ko’ngilni ranju hasrat tig’i birla necha bor tildim,
Ko’zimni to’ldirib yoshga, yana kiprikka ham ildim,
Vafo bu bevafo dunyoda chun anqo ekan bildim,
Fido jonimni aylab, olam ahlidin tamah qildim,
Vafo, astag’furloh, qilg’an emishmen xato asru.

Shoir ko’nglimni necha bor ranju alam bilan tilagan bo’lsamda, bu dunyodan vafo topolmadim hatto ko’zlarimdan oqqan yoshdan kipriklarim batamom osildi. Bu jahonda vafo anqoning urug’idek kamyob ekan degan istioralar bilan tasvirlab beradi. Taqdir mandan fidoiyligni talab qildi yaratgandan avf tiladim. Vafo ahlida so’radim qismat ahlidan javob talab qildim mazmunida bayon etilgan.

Ajab, bu olam ichra qancha g’am chekibman, oh,
Na olamdin, na odamdin jahonda bo’lmayin ogoh,
Ko’ngilga tushdi bir o’t, yoqdi andoq angladi ogoh,
Rizo ahlin siyosat tig’idin qo’rqitmag’il ey shoh,
Ki, qatlingda sening ko’rarg’a o’lmadur gado asru.

Bu olam ichra qancha g’am anduh chekdim. Bu olamda na odamdin, na olamdin biror foyda bo’ldi deya kuyinib dil izhorlarini yozadi. Shunda ko’nglimda shunda bir o’t tushdiki, shunda men anglab yetdim. Barcha jabr jafo hukmron tabaqaning oddiy avomga qilgan zulmida ekan. Rizo ahlini siyosat qilib qo’rqitmag deb shohlarga ishora qiladi.

Alamlar ohidin ruhingni qutqarkim, xush ermasdur,
Mazalat chohidin ruhingni qutqarkim, xush ermasdur,
Zamon maddohidan ruxingni qutqarkim, xush ermasdur,
Tabiat johidin ruhingni qutqarkim xush ermasdur,
Qafas qaydi aro, bulbulga bo’lmoq mubtalo asru.

Shoir alam bilan ruhingizni azob uqubatlardan tozalang bunday hatti harakatlar sizga xos emas, irodangizni toblang adolatsizlikdan ruhiyatingni tozala deya ko’p tanbeh beradi.

Jahon sayod emishkim qo’ymadi bu jon degan sayiddin,
Tasali istadim jonimga goho nolay naydin,
Gahi topdim halovat ko’nglim ichra shishayi maydin,
Chu kavsar jomi zikri qilmadi raf o’zligimqaydin,
Bu ranjimg’a hamono naf etar jomi fano asru.

Dunyoda bir ovchi ekanki, ovchiligini qo’ymadi, doim o’ljasini doim taqib ostida tutadi. Mening ham haytim quvg’inga o’xshaydi men shundan tasali istayman deb izoh beradi, hatto kavsardan olingan bir piyola suv ham menga yordam bermadi, men o’zimni tushunmayapman bu dardimga da’vo faqat o’lim deya fano qismatidan umid qilyapti.

Fano mulkida ne ersa, fanoiyikim xush ermasdur,
Yana nafsingga ne arsa daviyikim, xush ermasdur
Jamol, bu lazzati davron havoiiyikim xush ermasdur,
Havoyi gulshani quddus et, Navoiyikim xush ermasdur,
Zag'nalar birla bo'lmoq bu gulshanda bo'lmoq benavo asru.

Fono qismati senga hamma vaqt ham yupanch emas
nafsing uchun hech narsa yaxshi emas. Ey Jamol, deya
o'ziga o'zi murojaatida ko'rinib turganidek bu davr sen
uchun yaxshi emas sen o'zing uchun ozodlik gulidan bir

Adabiyotlar

1. Xurshid Davron. Ko'ksi kuyik shoir. www.kh-davron.uz
2. Jamol Kamol. Abadiyat ostonasida. 4-jild, («Navoiy va biz» maqolasi). –Toshkent: «Fafup Fyulom», 2018.

Ushbu maqolada taniqli tarjimon Jamol Kamolning Navoiy ijodiga bo'lgan qarashlari va uning “Asru” nomli g'azaliga bog'langan muxammasi sharhi berilgan.

В статье даётся комментарий известного переводчика Джамала Камала по творчеству А.Навои и анализ газели «Асру».

REZYUME

РЕЗЮМЕ

SUMMARY

The article gives an overview of the well known translator Jamal Kamal and his commentary on the creative work of A.Navoi and analysis of his gazelle “Asru”.

МЕТАФОРАЛАР ТАРЖИМАСИ ТАХЛИЛИДА КОНТЕКСТНИНГ ЎРНИ

Г.Ю.Рофиева - таянч докторант

Ўзбекистон миллий университети

Таянч сўзлар: метафора, контекст, метафора таржимаси, контекстуал тахлил, диалектик система, компонент тахлил, концептуал метафора, метафорик-функционаллик, метафорик-метонимия, метафорик-синекдоха.

Ключевые слова: метафора, контекст, перевод метафоры, контекстуальный анализ, диалектическая система, компонентный анализ, концептуальная метафора, метафорическая функциональность, метафорическая-метонимия, метафорическая-синекдоха.

Key words: metaphor, context, metaphor translation, contextual analysis, dialectic system, component analysis, conceptual metaphor, metaphorical functionality, metaphorical-metonymy, metaphorical-synecdoche.

Ҳар бир сўз луғавий маъносидан ташқари ўзининг контекстуал моҳиятига эга. Сўзларни тўлиқ матн таркибида таҳлил қилиш муаллиф мақсадини тўғри тушунишга кўмаклашади. Жумладан, метафоралар, хусусан, уларнинг таржимаси бутун контекстни таҳлилини талаб этади. Мазкур таҳлил бадий асар таржимасининг адекватлик даражасини аниқлашда ёрдам беради. Жумладан ўзбек ёзувчиси Эркин Аъзамнинг “Шовқин” асари французча таржимасини ўқир экансиз, метафораларнинг таржимада ўз хусусиятларини йўқотмасдан берилиши қанчалик муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўриш мумкин. Масалан куйида берилган гапларда метафоралар ўз аҳамиятини йўқотмаган ҳолда берилган:

Ўзбек тилида: - Шошириб эмиш, кўп йиллар бурун бошидан кечган эски савдоларни **қайта тиглаб**, нари-берисини айтмаганда, бир маромда бораётган бугунги турмушини **алғов-далғов қилиб юборди** деса бўлади [6:5].

Француз тилида: - Elles le **perturbèrent profondément**, le forçant à revivre un événement vieux de plusieurs années, si bien que sa vie au quotidien s'en trouva **réduite à un immense désordre** [7:3].

Ушбу парчада “тигламоқ” сўзи метафорани ҳосил қилиб, унинг айнан қайси моҳиятда ифодаланиб келишини унинг семалари таҳлили орқали билишимиз мумкин:

Тигламоқ *кт.* Тиг урмоқ, кесмоқ.

Бағрини (*ёки кўксини, юрагини*) **тигламоқ** Рухий ёки маънавий азоб бериб, эзиб, юрагини доғламоқ, яраламоқ. *Буўйлар кичик Умидни азоблар, бағрини тигларди.* Мирмуҳсин, Умид. *Ғам ханжари билан кўксин тиглади.* Ғайратий. *Сени дея кўп йиғладим, Юракларимни тигладим.* «Нигор ва Замон» [4:132].

Демак мазкур ўринда “тигламоқ” сўзи “руҳий азоб бермоқ” маъносини ифодалаб, француз тилида “**perturbèrent profondément**” жумласи билан берилган ва ушбу сўзлар луғатда куйидагича ифодаланган:

perturber vt бузмоқ, халақит бермоқ; *la grève* va *perturber* les transports иш ташлаш транспорт ҳаракатига халақит

то'шак yaratishni istagan Navoiyning istagi yaxshi,lek qaroqchilar orasida ovozsiz gul bo'lishning hech qanday foyda yo'q deb izoh beryapti.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy bu g'azali bilan davr ruhini chiza olgan desak xato qilmagan bo'lamiz. Inson hayoti davomida chekadigan zahmmatlari, taqdir zarbalari muxtasar qilib ayini shu g'azal matnida bayon etgan. O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol ushbu g'azaldan ruhlanib o'z san'at asarini yaratgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

беради; *fam il avait l'air perturbé* унинг кўриниши хаяжонли эди [5:407].

profondément adv чуқур; *creuser profondément la terre* ерни чуқур қовламоқ; *dormir profondément* чуқур уйқуга кетмоқ; *respirer profondément* чуқур нафас олмақ; *je l'aime profondément* мен уни юрагимнинг тўридан севаман; *c'est profondément différent* бу тубдан бошқача [5:450].

Юқоридаги парчада берилган “эски савдоларни тигламоқ” жумласи француз тилига ўгириш жараёнида маъно жиҳатдан фарқ қилувчи сўз билан берилган бўлсада, ўз моҳиятини ва метафорик хусусиятини йўқотмаган. Бу эса бадий асар қийматини сақлашда муҳим аҳамиятга эга. Шунингдек, гаптаги турмушини “**алғов-далғов қилиб юборди**” жумласи ҳам метафора бўлиб, француз тилида “**réduite à un immense désordre**” тарзида ўтирилган ва бунда ҳам метафора хусусияти сақланган.

Навбатдаги мисолларни кузатамиз:

Ўзбек тилида: - Лекин ногаҳон **чақмоқ чакнаган мисол бари остин-устин бўлиб кетди** [6:5].

Француз тилида: - Il est vrai que ces événements étaient tous derrière lui maintenant, pour le meilleur ou pour le pire et que la vie aurait pu se dérouler normalement, mais comme **le tonnerre que l'on n'attend pas**, tout se trouva soudain **bouleversé** [7:3].

“Чақмоқ чакнаган мисол” жумласида “мисол” сўзи мавжудлиги сабаб ушбу жумла ўхшатишга мансубдек туюлиши мумкин, лекин гапта жумланинг моҳияти ва англатиб келаётган маъно вазиятга нисбатан кескинликни билдиради. Шунинг учун ҳам ушбу жумла метафора сифатида тушунилади. Шунингдек, “**бари остин-устин бўлиб кетди**” жумласи ҳам метафора бўлиб, бунда ҳодиса – нарса сифатида ҳаракатланмоқда ва бу француз тилида “**tout se trouva soudain bouleversé**” деб таржима қилинган. Ушбу сўзнинг қай даражада метафоралашганлигини билиш учун луғатга мурожаат қиламиз:

bouleverser vt 1. Ағдармоқ, йикитмоқ; 2. Хаяжонга солмоқ; 3. тўнтarmoқ; *il a tout bouleversé dans la maison* у бутун уйни ағдар-тўнтар қилди [5:71]. Метафора